



IX-XII ASRLARI MOVOROUNNAHR ILMIIY UYG‘ONISHIDA MARKAZLASHGAN DAVLATLARNING O‘RNI

Raxmatova Zuxro Najmiddinovna
Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada IX -XII asrlarda Movorounnahr zaminida yuz bergan ilmiy uyg‘onishga kuchli ta’sir ko‘rsatgan markazlashgan turkiy davlatlarning tashkil topishiga kuchli ta’sir ko‘rsatganini atlofliha o‘rganib tahlil qilib berilgan. Ma’lumki, arab xalifaligining yurtimizda davom etgan bir yarim asrdan oshiq hukmronligi davrida mamlakatimiz xalqlari katta ma’naviy, ma’rifiy zarbaga uchrashi va shu bilan birga tarixiy burilishlar davrida xalqimiz o‘zining o‘zligini, milliyiligini, an’analarini kerakli darajada saqlab qolishga muvaffaq bo‘la oldi. Mamlakatimiz hududida tashkil topayotgan Somoniylar davlatining ahamiyati katta bo‘ldi. Shu sababdan ham, ma’naviy yuksalishdan oldin jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan milliy davlatchiligimiz tarixining mazkur davrini kengroq yoritib berish, manbalarni qayta tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Xalifalik, Somonxudot, Ma’moniylar, G‘aznaviylar, Tohiriy, uyg‘onish davri, ilmiy yuksalish, qadriyat, an’ana.

Аннотация: Абстрактный В данной статье дается подробный анализ влияния на формирование централизованных тюркских государств, оказавших сильное влияние на научное возрождение, происходившее на Мавераннахрской земле в IX-XII веках. Известно, что за более чем полувекое правление Арабского халифата народы нашей страны подверглись сильному духовному, просветительскому удару и вместе с тем в период исторических переломов наш народ сумел сохранить свою самобытность, национальность, традиции на должном уровне. Большое значение имело государство Саманидов, которое формировалось на территории нашей страны. По этой причине становится важным более широкое освещение этого периода истории нашей национальной государственности, оказавшего положительное влияние на процесс духовного подъема, а также повторный анализ источников.

Ключевые слова: халифат, Саман-Худат, Мумуни, Газневиды, Тахири, Ренессанс, научный подъем, ценность, традиция.

Annotation: This article describes in detail the strong influence on the formation of centralized Turkic states, which had a strong influence on the scientific awakening that occurred on the Land of Movorounnahr in the 9th-12th centuries. It is known that during the reign of the arab Caliphate of more than a century and a half, which lasted in our country, the peoples of our country were able to suffer a great spiritual, educational blow, and at the same time, during the period of historical turns, our people managed to preserve their identity, nationality, traditions at the desired level. The Somonian state that was forming on the territory of our country became important. For this reason, it is important to give a wider coverage of this period of the history of our national statehood, reanalysis of sources, which had a positive impact on the process before the spiritual rise.

Keywords: caliphate, Somonkhudot, Ma'muniy, Ghaznavites, Tohiri, Renaissance, scientific uplift, value, tradition.

Tarixiy tadqiqotlardan ma’lumki, qayerda markazlashgan davlat tashkil topsa, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik qaror topsa, usha yerda ilmiy yuksalishlar



va rivojlangan va jahon tamadduninnig rivojiga o'lgan hissa qushgan sivilisatsiyalar yuzaga kelgan. Yuzaga kelayotgan yangi tamaddun o'zidan oldingi sivilisatsiyalardan ruhiy ozuqa olish bilan birgalikda o'zidan keyingi taraqqiyot bosqichlari uchun fanning turli sohalari bo'yicha ko'plab ilmiy g'oyalarni yaratilishi uchun zamin bo'lgan. Bu ilmiy g'oyalar esa keying davr taraqqiyoti uchun, hozirgi zamon uchun o'ziga xos renessansni boshlab beradi. Arab xalifaligi davrida yashagan O'rta Osiyolik mutafakkirlarning jahon sivilisatsiyasiga qo'shgan o'rni bevosita mazkur davrda Somoniylar, Ma'muniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar singari turkiy-musulmon davlatlarining tashkil topishi bilan izohlanadi. Chunki bu davlatlar davrida muayyan darajada tinchlik va barqarorlik yaratilibgina qolmasdan, ko'plab madrasalar, ilm – fan markazlari tashkil etilib, yuksak, sog'lom ilmiy muhit yuzaga keldi. Bu esa keyingi davr ilmiy rivoji uchun asos yaratilishiga sabab bo'ldi.

Somoniylar davrida yuzaga kelgan shart sharoitlar mamlakatimiz tarixida ilm fanning yuksalishi uchun keng shart sharoitlarni yaratib berdi. Har bir davr tarixning o'chmas sahifalarida o'ziga xos iz qoldiradi. IX-X asrlarda hukmronlik qilgan Somoniylar davlati ham ham O'rta Osiyo tarixida, shuningdek, butun bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirdi. Chunki mana shu davrda butun Sharq, jumladan, O'rta Osiyoning mutafakkirlari o'z mehnatlari bilan jahon madaniyati, ilm-fani xazinasini boyitdi. Ilm fan va ijtimoiy-madaniy hayotda qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalar nafaqat o'rganilayotgan davr tarixini boyitdi, balki keyingi davr ilmiy yuksalishlari, ilmiy ixtirolari uchun o'ziga xos zamin yaratib berdi.

Xalqimizning 3000 yillik orzusi bo'lgan buyuk ne'matlardan biri bo'lmish mustaqillik xalqimiz uchun milliy urf – odatlarni o'rganish, ajdodlarimizning boy madaniy va ma'naviy merosidan bahramand bo'lish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bunday imkoniyat uchun shukronalar aytib, xalqning, jonajon o'lgan, davlatimizning xolis va haqqoniy tarixini o'rganish, milliy o'zlikni anglash, milliy iftixorni, g'ururni tiklash va o'stirish muhim o'rin tutadi. «Xalqning madaniy qadriyatlarini, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Sobiq Sovet davri tadqiqotlaridagi mafkuraviy yondashuvlar natijasida o'rganilayotgan davr ilmiy muhiti, siyosiy jarayonlarini, mutafakkirlarning ilmiy yutuqlarini yoritishda bir tomonlama yondashuvlar yuzaga kelganiga guvoh



bo'lishimiz mumkin. Sovet mafkurasi bu ilmiy muhitni o'zlarining mafkuraviy qarashlari asosida talqin qilar ekan, shu asosda buyuk o'tmishimiz va bu davrda ijod qilgan allomalar xususida xalqimiz ongida shonli o'tmishimiz xususida salbiy tushunchalar o'yg'otishga va shu asosda o'zlarining bir tomonlama yondashuvlar hamda mafkuraviy dunyoqarashlarini singdirishga harakat qildi. Bu jarayonda amaliyotga ko'plab sovetlarning nazariy va amaliy uslubiyatlari, vositalari ham joriy qilindi. Targ'ibot-tashviqot masalalari yo'lga qo'yildi. Sovetlar shu davr yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda haqqoniylik, real maqsadlar va ularning tavsifi keltirilgan bo'lsa bu kabi tadqiqotlarga nisbatan senzuralarning joriy etilishi, tadqiqot mualliflarining ta'qib ostiga olinishi natijasida mafkuraviy targ'ibotda muayyan darajada yutuqlarga ham erishildi.

Narshaxiyning yozishicha, Muqanna turli fanlardan jumladan, kimyo fanidan yaxshi xabardor bo'lib, xalq orasida sehrigar sifatida tanilgan. Aqlli va tadbirkor Muqanna keyinchalik harbiy soha bilan shug'ullanib, sarhanglik (kichik lashkarboshilik) lavozimiga chiqdi. Aqli, topqirligi va tadbirkorligi sababli vazirlik darajasiga erishdi. Tarixiy ma'lumotlarda uni payg'ambarlik da'vosi uchun zindonga tashlaganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shu bilan birgalikda qo'zg'olonni 783 yilda emas balki, 769 yilda boshlanganligi keltiriladi. Arablarning Movarounnahrning zabt etishini yana bir jihati mahalliy boshqaruvning arablar qo'liga o'tishi bo'ldi. Asta – sekin arablar bosib olingan o'lkalarda mahalliy xalq vakillaridan noiblarni tayinlay boshladilar. Chunki, faqatgina mahalliy noiblar qo'zg'olonlarni bostirishga va davlatning, xalifalikning birligini saqlab qolishga qodir hamda yig'ilgan soliqlarni o'z vaqtida markazga yuborishni ta'minlashi mumkin edi.

Shu tariqa, 821 yilda Xurosonning yirik oqsuyak yer egalaridan bo'lmish Tohir ibn Husayn bu hududning noibi etib tayinlandi. Movarounnahr ham o'sha davrda Xuroson noibli tarkibida edi. Tohir ibn Husayn o'z qo'l ostidagi keng viloyatlarni mustaqil davlatga aylantirish uchun ochikdan – ochiq harakat qildi. U noiblikka tayinlangan kundan bir yil o'tar – o'tmas, jome' masjidida juma namozida o'qiladigan xutbadan xalifa nomini chiqarib tashlashga buyruq berdi. Xalq qo'zg'olonlari ham ko'paya borib, Nasaf, Buxoro, Ushrushon, Shosh, Xorazm va boshqa joylarni qamrab oldi. Bu voqealarni mashhur tarixchi Narshaxiy quyidagicha tasvirlaydi: «Rofe ibn Lays Xorun ar – Rashidga qarshi hujum qilib, Samarqandni olganida, Xorun ar Rashid Harsama ibn A'yanni Rofe ibn Laysga qarshi urushga yubordi. Rofe Samarqandni ishg'ol qildi va Harsama uni qulga olishga o'jiz qoldi... Ma'mun Asadning o'g'illariga xat yozib, ularga Rofe bilan



urushda Harsamaga yordam berishni buyurdi. Asad o'g'illarining da'vatiga ko'ra Rofe Harsama bilan sulh tuzdi va ular o'rtasida quda – andachilik vujudga kelib, Xorun bu ishda xotirjam bo'ldi... Ma'mun (Xorun ar – Rashidning o'g'li) xalifalikka o'tirgach (813 yil), G'asson ibn Ubbod Xurosonga amir bo'ldi. Ma'mun unga Asad ibn Samonxudotning o'g'illariga Xurosonning ayrim shaharlari hukmronligini berishni buyurdi» [1:146]. «Sadoqatli xizmatlari uchun Nuh - Samarqandning, Ahmad – Farg'onaning, Yah'yo – Toshkentning, Ilyos esa Xirotning hukmdori etib tayinlandi» [7:94]. Bu voqeya 819 – 820 yillarda sodir bo'ldi va Movarounahrda Somoniylar mavqeyi kuchaya bordi. Manbalarda berilishicha, Somonxudot Ismolga qadar kata yer egasi bo'lgan. Ismi – Somon bo'lib, xudot – «xon» degan ma'noni anglatgan. Ayrim manbalarda Somon qishloq nomi degan ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, Balx, Farg'ona, Samarqand atroflarida ham Somon nomli qishloqlar mavjudligini ko'rsatishadi.

Arab xalifaligining so'ngi yillarida Xuroson va Movorounnahr mintaqasida mahalliy hukmdorlar mavqeyining oshib borishi natijasida mahalliy sulolalarning mavqeyi oshib borgan bo'lsa, hokimiyatni egallab olgan mahalliy hokimiyat vakillarining ham o'z navbatida mavqeyi tushib bordi. Masalan, Xuroson mintaqasida aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining og'irlashib borishi G'oziyalar harakatini keltirib chiqardi. Oqibatda rasmangina Xuroson hamda Movarounnahr hukmroni bo'lgan Tohiriylar inqirozi bu hududdagi mahalliy hokimlarning to'la mustaqillikka erishmoqligi uchun qulay sharoit yaratdi. Bu holat Somoniylar uchun ham keng imkoniyatlarni ochib berdi. 893-yilda Ismoil ibn Ahmad ko'chmanchi turk qabilalari ustiga katta qo'shin bilan yurish qilib, Taroz [hozirgi Jambul] shahrini egalladi va turk xonini o'n ming askari bilan asir tushirdi. Bu ulkan g'alaba uning mavqeyini va Movarounnahr hududidagi ta'sirini yana ham oshirdi. Shu bilan birgalikda, mazkur g'alaba Movorounnahr zaminiga ko'chmanchi qabilalarning to'xtovsiz hujumlarini oldini olibgina qolmasdan balki, butunlay mazkur qabilalarning hujumiga chek qo'ydi. Mazkur g'alaba va uning natijasidan hatto arab xalifasi Mu'tazid ham vahimaga tushib qoldi. Natijada, Mu'tazid Ismoil ibn Ahmad bilan Safforiy Amr ibn Lays o'rtasida urush keltirib chiqardi. 900 yilda u bilan Amr ibn Lays o'rtasida to'qnashuv bo'ldi. Bu urushda Ismoil ibn Ahmad katta g'alaba qozondi va uning davlati, kuch va qudrati yanada yuksaldi. Safforiylarga tegishli barcha mol-mulkni o'ziga qo'shib olgan Ismoil ibn Ahmad butun Xurosonni ham Somoniylar davlati tarkibiga qo'shib oldi.

Tarixiy manbalarda Ismoil Somoniyning xarakteri va qobiliyati yuzasidan bildirilgan tarixiy faktlar saqlanib qolgan. Narshaxiy o'z asarlarida Ismoil Somoniy



xususida qo‘yidagicha ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Ismoil ibn Ahmad Somoniy shu darajada kuchli va qudratli davlat barpo qildiki, unda ko‘chmanchi qabilalarga qarshi kurashmoq uchun mudofaa istehkomlari bo‘lgan devorlar, qal’alar qurishga ehtiyoj qolmadi. U mustahkam va Movarounnahr hamda Eronni o‘z ta’siri ostida tutgan qudratli davlatga ega bo‘ldi. Biroq, qancha harakat qilmasin, Xorazm va hozirgi Tojikistonning tog‘li viloyatlari rasman unga buysunsalar ham, amalda mustaqil siyosat olib borardilar. Lekin shunday bo‘lsa-da, "Ismoil Somoniy davrida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadul-abad ozod bo‘ldi" [3:179], deb ta’kidlaydilar tarixchi olimlar.

Lekin diniy markaz hisoblangan Arab xalifaligi o‘zlarining bu huquqidan foydalanib, o‘zlarining sobiq hududlari aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’sir ko‘rsatib kelgan. Arab muarrixlari shu boisdan Movorounnahr zaminini o‘zlarining tarkibiy qismlari sifatida o‘z asarlarida bayon qilaverishgan. Mahalliy aholining xalifalik zulmiga qarshi kurashi esa to‘xtab qolmagan. «IX asrda O‘rta Osiyo hududida arablar hukmronligi davom etardi. Ammo erk va hurlik singari olijanob tarixiy an‘analarga sodiq bo‘lgan ajdodlarimiz, - deb ta’kidlaydilar tarixchi olimlar, - arab bosqinchilariga qarshi kurashni bir daqiqa bo‘lsa – da, to‘xtatmadilar va mustaqil markazlashgan davlat barpo qilishga intildilar» [3:171].

Shu o‘rinda Markaziy Osiyoning qulay geosiyosiy maydonda joylashganligi ham ilmiy taraqqiyotning yuksalishiga asos bo‘lgan degan ilmiy nazariyani ilgari surishimizga asos bo‘ladi. Markaziy Osiyoning Xitoy, Hindiston, Eron, Kavkaz va Sharqiy Yevropa davlatlari orasida joylashgan geografik o‘rni bu hududni dunyoning muhim savdo va madaniy aloqalar markaziga aylantirdi. Katta inqirozlar, turli urushlar, tabiiy ofatlar va kasalliklar olib kelgan qirg‘inlarga qaramasdan, O‘rta Osiyoda xalqaro va madaniy aloqalar hech qachon uzilib qolmagan. Bu borada “Buyuk ipak yo‘li” orqali amalga oshirilgan keng miqyosidagi madaniy aloqalarning xizmati juda katta bo‘lgan. Chunki, Markaziy Osiyo deb atalgan keng jug‘rofiy hudud azaldan o‘zining tarixiy shuhrati bilan qo‘shnilari orasida raqobatlashuvchi shahar madaniyati mavjud bo‘lgan. Bular sharqdagi yuqori darajada rivojlangan madaniy markazlar sanalmish Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm shaharlari edi. Afrosiyob, Ko‘ktepa, Erqo‘rg‘on, Ko‘zaliqir, Jarqo‘rg‘on, Sopollitepa singari qadimiy shaharlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida qo‘lga kiritilgan moddiy va ma’naviy madaniyat to‘grisidagi manbalar yuqoridagi fikrimizni tasdiqlab kelmoqda. Mazkur shaharlarda olib borilgan izlanishlar mamlakatimiz madaniy hayotini aks ettirgan lavhalari, savdo va iqtisodiy aloqalar natijasida boyiganini tadiqlash bilan



birgalikda o'lkamiz hududida qadimdan ma'naviyat tarqatuvchi maskan sifatida mashhur bo'lganini ham tasdiqlaydi. Hindiston, Eron, Xitoy, yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan topilgan o'lkamiz tarixiga oid yoki ularda madaniyatning muayyan shaklini rivojlantirishga asos bo'lgan topilmalar fikrimizni tasdiqlaydi.

Xulosa: Somoniylar davrida yuzaga kelgan bu shart-sharoitlar mamlakatimiz tarixida ilm fanning yuksalishi uchun keng shart-sharoitlarni yaratib berdi. Har bir davr tarixning o'chmas sahifalarida o'ziga xos iz qoldiradi. IX-X asrlarda hukmronlik qilgan Somoniylar davlati ham O'rta Osiyo tarixida, shuningdek, butun bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki mana shu davrda butun Sharq, jumladan, O'rta Osiyoning mutafakkirlari o'z mehnatlari bilan jahon madaniyati, ilm-fani xazinasini boyitdi. Ilm-fan va ijtimoiy-madaniy hayotda qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalar nafaqat o'rganilayotgan davr tarixini boyitdi, balki keying davr ilmiy yuksalishlari, ilmiy ixtirolari uchun o'ziga xos zamin yaratib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Abu Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi.-Toshkent1991-102-146 b.
2. История стран Азии и Африки в средние века. Toshkent-M1987.-10 с.
3. Karimov Sh., Shamsutdinov U. Vatan tarixi.-Toshkent 1997.-171-179 b.
4. Низом аль- Мульк. Сиасет-намэ. -М -Л.: Знание, 1949. – 223 с.
5. Массэ А. Ислам. Очерк истории.- М.: Наука, 1963.-172 с.
6. O'zbekiston xalqlari tarixi. [A. Asqarov tahr.] 1 -t.-T.: Fan, 1992.-92 b.
7. Hidoyatov G.A. Mening jonajon tarixim.- T.: O'qituvchi, 1992. -107 b.
8. Israilova, S. (2023). TARIXIY MANBALARDA RANGLAR TALQINI. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI.
9. Otajanova, M. (2022). Mythologism in modern Uzbek prose. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 6, 56-65.
10. Сабирова, Н. Э. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ УЧАЩИМИСЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА С ЦВЕТОВЫМИ КОМПОНЕНТАМИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 34-36).